O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 2 - fevral 49-10-0-Q/22 Toshkent viloyati hokimiligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 dekabrdagi “«Yangi O‘zbekiston» massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-32-sonli Farmoni to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 dekabrdagi “Yangi O‘zbekiston” massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-32-sonli Farmoni ijrosi yuzasidan viloyatda aholining uy-joy sharoitini yaxshilash, hududlarda zamonaviy shaharsozlik talablari asosida ko‘p qavatli uy-joylar, ijtimoiy soha va infratuzilma ob'ektlari hamda muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari qurilishini jadallashtirish, er resurslaridan oqilona foydalanish va aholi punktlarining urbanizatsiya jarayonlarini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga muvofiq **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 dekabrdagi “Yangi O‘zbekiston” massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-32-sonli Farmoni ijro uchun qabul qilinsin.

2. 2022 yilda quriladigan “Yangi O‘zbekiston” massivlarining manzilli ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. “Yangi O‘zbekiston” massivlarida ko‘p qavatli uy-joylar, muhandislik-transport kommunikatsiyasi, ijtimoiy soha, ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko‘rsatish ob'ektlari kompleks tarzda qurilishi belgilansin. Bunda:

ko‘p qavatli uy-joylarning qurilish osti er uchastkalari tadbirkorlik sub'ektlariga elektron onlayn-auktsion orqali ijara huquqi asosida realizatsiya qilinsin;

ko‘p qavatli uy-joylarga tutash er uchastkalari uy-joy qurib bitkazilganidan keyin mahalliy ijroiya hokimlik organining tegishli qarori bilan ko‘p qavatli uy-joy mulkdorlariga doimiy foydalanish huquqi asosida ajratib berilsin;

massivlarda tashkil etiladigan ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko‘rsatish ob'ektlarini qurish uchun er uchastkalari tadbirkorlik sub'ektlariga belgilangan tartibda elektron onlayn-auktsion orqali mulk va ijara huquqlari asosida realizatsiya qilinsin;

elektron onlayn-auktsionda g‘olib deb topilgan tadbirkorlik sub'ektlariga ko‘p qavatli uy-joylar qurilishi uchun “CCC” va undan yuqori reytingga ega bo‘lgan qurilish tashkilotlarini jalb qilishga ruxsat etilsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 21 apreldagi PQ-5087-sonli qaroriga muvofiq xalq deputatlari shahar (tuman) Kengashlariga olis va chekka hududlarda joylashgan er uchastkalariga bo‘lgan mulk huquqi va ijara huquqini elektron onlayn-auktsionga qo‘yishda er uchastkasining boshlang‘ich narxini 50 foizgacha kamaytirish vakolati berilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

5. “Yangi O‘zbekiston” massivlarida tashqi muhandislik-transport kommunikatsiyalari hamda ijtimoiy soha ob'ektlarini qurishda quyidagilar:

a) buyurtmachi etib:

massivlarning qurish loyihalarini ishlab chiqish, hududlarni obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarini bajarish, shuningdek, ijtimoiy soha ob'ektlarini qurish bo‘yicha - tegishligiga ko‘ra viloyat hokimligi huzuridagi “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasi;

avtomobil yo‘llarini qurish bo‘yicha - viloyat avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi;

isitish qozonxonalari va issiqlik tarmoqlarini qurish bo‘yicha - Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi;

ichimlik va oqova suv ta'minoti tarmoqlarini qurish bo‘yicha – “Toshkent suv ta'minot” MCHJ;

elektr va gaz ta'minoti tarmoqlarini qurish bo‘yicha — “Toshkent hududiy elektr tarmoqlari” AJ va “Hududgaz Toshkent” MCHJ;

aloqa tarmoqlarini qurish bo‘yicha — “Toshkenttelekom” filiali belgilansin;

b) massivlarni qurish loyihalarini ishlab chiqish bo‘yicha bosh loyihachi etib “Qishloq qurilish invest” ixtisoslashtirilgan IK viloyat filiali, “O‘zshaharsozlikLITI” DUK, “ToshuyjoyLITI” AJ va “ToshkentboshplanLITI” DUK belgilansin;

v) tashqi muhandislik-transport kommunikatsiyalari hamda ijtimoiy soha ob'ektlari qurilishini amalga oshiruvchi pudrat tashkilotlari davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq aniqlansin.

6. Belgilansinki, “Yangi O‘zbekiston” massivlarida quyidagi ishlar:

massivlarni qurish loyihalarini ishlab chiqish, tashqi avtomobil yo‘llari, ichimlik va oqova suv ta'minoti tarmoqlarini qurish - Davlat byudjeti mablag‘lari, hududlarda tashkil etiladigan tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish jamg‘armalari va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan;

tashqi elektr va gaz ta'minoti tarmoqlarini qurish – “Toshkent hududiy elektr tarmoqlari”

AJ va “Hududgaz Toshkent” MCHJlarning o‘z mablag‘lari hamda asoslangan hisob-kitoblarga ko‘ra Davlat byudjetidan ajratiladigan qisqa muddatli foizli ssudalar hisobidan;

ko‘p qavatli uy-joylarni qurish - tadbirkorlik sub'ektlarining o‘z mablag‘lari, tijorat banklarining kreditlari va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan;

hududlarni obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarini

bajarish - mahalliy byudjet mablag‘lari va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan;

ijtimoiy soha ob'ektlari (maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari, tibbiyot punktlari, isitish qozonxonalari va boshqalar)ni qurish - Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladi. Bunda, ijtimoiy soha ob'ektlari davlat-xususiy sheriklik asosida qurilganda, ushbu ishlar davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitimga muvofiq bajariladi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 dekabrdagi PF-32-sonli Farmonga asosan Moliya vazirligi 2021 yilda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida o‘zlashtirilmagan 300 mlrd so‘m miqdoridagi mablag‘larni teng ulushlarda Moliya vazirligi huzuridagi Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi hamda Avtomobil yo‘llarini rivojlantirish maqsadli jamg‘armasi hisob raqamiga o‘tkazganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 dekabrdagi PF-32-sonli Farmonning 2-ilovasida ko‘rsatilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan past rentabelli 47,8 gektar er maydonlari “Yangi O‘zbekiston” massivlarini qurish uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan erlar toifasidan tegishincha aholi punktlarining erlari hamda sanoat maqsadlariga mo‘ljallangan erlar toifasiga o‘tkazganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

8. Belgilab qo‘yilsinki:

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan er uchastkalarini yuqoridagi mazkur qarorga muvofiq olib qo‘yilishi sababli qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi ishlab chiqarishi nobudgarchiliklari o‘rnini qoplash bo‘yicha kompensatsiya to‘lovlari undirilmaydi;

ushbu er uchastkalaridan maqsadli foydalanilishi uchun shahar (tuman) hokimlari shaxsan javobgar hisoblanadi.

Shahar (tuman) hokimlari qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan er uchastkalari qisqarib ketishining oldini olish maqsadida 2023 yil 1 yanvarga qadar ushbu qaror bilan toifasi o‘zgarayotgan sug‘oriladigan er uchastkalari maydonining besh baravari miqdorida yangi erlar o‘zlashtirilishini ta'minlasin. Bunda, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yangi er uchastkalari Kadastr agentligi tomonidan belgilangan tartibda hisobga olinganidan so‘ng o‘zlashtirilgan hisoblanadi.

Kadastr agenligining Toshkent viloyati boshqarmasi (R.Payziev) viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (Sh.Do‘sbekov) bilan birgalikda shahar (tuman) hokimlari tomonidan qishloq

xo‘jaligiga mo‘ljallangan yangi er uchastkalari o‘z vaqtida va belgilangan miqdorda o‘zlashtirilishini qat'iy nazorat qilsin.

9. Viloyat qurilish bosh boshqarmasi (E.Po‘latov), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bosh boshqarmasi, shahar (tuman) hokimlarining takliflariga asosan bir oy muddatda oldingi yillarda barpo etilgan massivlarning bo‘sh turgan er uchastkalarida va uy-joyga talab yuqori bo‘lgan boshqa hududlarda quriladigan uy-joylarning manzilli ro‘yxatini va qurilish parametrlarini tasdiqlasin.

shahar (tuman) hokimlari tasdiqlangan manzilli ro‘yxat asosida uy-joy qurish uchun er uchastkalarini belgilangan tartibda elektron onlayn-auktsionga chiqarilishini ta'minlasin.

10. Shahar (tuman) hokimlari bir oy muddatda “Yangi O‘zbekiston” massivlarini qurish loyihalarini ishlab chiqish va ularda qurilish ishlarini tashkil etishga “Qishloq qurilish invest” ixtisoslashtirilgan IK viloyat filiali hamda “O‘zshahar qurilish invest” IK MCHJlarni jalb qilish bo‘yicha takliflarni viloyat hokimligiga kiritsin.

11. Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi (N.Rajabov) shahar (tuman) hokimlari bilan birgalikda ikki oy muddatda 2022 yilda “Yangi O‘zbekiston” massivlariga tutash va yaqin hududlarda tashkil etiladigan kichik sanoat zonalari va texnoparklar ro‘yxatini tasdiqlasin.

12. Viloyat qurilish bosh boshqarmasi (E.Po‘latov):

a) 2022 yil 1 iyunga qadar 2023 - 2026 yillarda quriladigan “Yangi O‘zbekiston” massivlarining manzilli ro‘yxatini shakllantirsin va viloyat hokimliga tasdiqlash uchun kiritsin;

b) shahar (tuman) hokimlari bilan birgalikda ko‘p qavatli uy-joylarni loyihalash va qurishda belgilangan qurilish normalari va qoidalariga, qurilish-montaj va pardozlash ishlarini bajarish sifatiga qat'iy rioya etilishi bo‘yicha tashkiliy-texnik tadbirlar amalga oshirilishi ustidan tizimli nazorat o‘rnatsin;

v) tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ko‘p qavatli uy-joylarni qurish bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlari qonunchilikda belgilangan muddatlarda tayyorlanishi, kelishilishi va qurilish ishlari boshlanishini ta'minlasin.

13. Viloyat prokuraturasi (S.Samadov) “Yangi O‘zbekiston” massivlari qurilishida narxlarning asossiz oshirilishi, raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishi hamda tasdiqlangan loyihalarning o‘zboshimchalik bilan o‘zgartirilishiga yo‘l qo‘ymaslik ustidan ta'sirchan nazorat o‘rnatsin.

14. Mazkur qarorning ijrosini ta'minlash viloyat hokimining o‘rinbosari Sh.Maxmudov hamda shahar va tuman hokimlari zimmasiga yuklansin.

Toshkent viloyati hokimi v.b. **Z.Mirzayev**

Тошкент вилоят ҳокимининг
2022 йил 2 февралдаги
49-10-0-Q/22-сон қарорига
1-илова

Toshkent viloyatida 2022 yilda quriladigan “Yangi O‘zbekiston” massivlarining

MANZILLI RO‘YXATI

*

T/r	Hududlar nomi	Shahar (tuman) nomi	Mahalla va massivlar nomi	Massiv maydoni (gektar)	Quriladigan uy-joylar		Quriladigan ijtimoiy ob'ektlar soni		
					uy-joylar soni	xonadon soni	umumta'lim maktabi	maktabgacha ta'lim tashkiloti	tibbiyot muassasasi
Viloyat bo‘yicha			**3 ta**	**108,1**	**44**	**2808**	**2**	**3**	**2**
1.	Toshkent viloyati	Chirchiq shahar	“Iftixor” MFY	49,0	29	1 668	1	1	1
		Olmaliq shahar	“I.Karimov” MFY, “A.Qahhor” MFY	59,1	15	1 140	1	2	1

Тошкент вилоят ҳокимининг
2022 йил 2 февралдаги
49-10-0-Q/22-сон қарорига
2-илова

Viloyatda “Yangi O‘zbekiston” massivlarini qurish uchun toifasi o‘zgartirilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan er maydonlari

RO‘YXATI

T/r	Hududlar nomi	Shahar (tuman) nomi	MFY nomi	Dala kontur raqa-mi	Er maydoni(ga)	Shundan:				
						sug‘oriladi-gan	lalmi	ko‘p yillik daraxtzorlar	bo‘z erlar	yaylovlar
	Jami				**47,8**	**41,65**		**5,4**		**0,9**
1.	Toshkent viloyati	Olmaliq shahri	“I.Karimov” MFY, “A.Qahhor” MFY	8435q, 8436, 8437, 8438, 8440, 8441, 8443, 8442	47,8	41,65		5,4		0,9